XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 4 - iyul VI-62-61-4-58-K/23 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumani hududidagi shahar va qishloqlar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 23-apreldagi 299-son qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida” Nizomga muvofiq Respublika Aerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo bo‘linmasi, Qamashi tumani hududidagi shahar va qishloqlar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2023-yil 7-iyundagi yig‘ilishining B-1-1/22-son bayonini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi qonunning 6- va 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 23-apreldagi 299-son qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida” Nizomga muvofiq Respublika Aerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo bo‘linmasi, Qamashi tumani hududidagi shahar va qishloqlar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2023-yil 7-iyundagi yig‘ilishining B-1-1/22-son bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qamashi tumani shahar va qishloqlarining chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga muvofiq;

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani qishloqlarining ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari xaritasi 2- ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Mazkur qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashidan so‘ralsin.

4. Ushbu qaror tuman hokimligining rasmiy veb saytida e’lon qilinsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosarlari Q.Xaydarov, H.Azizov hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi B.Baxriddinov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **B.Tog‘ayev**

Xalq deputatlari Qamashi tuman
Kengashining
2023-yil 4-iyuldagi
VI-62-61-4-58-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qamashi tumani shahar va qishloqlarining chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risida ma’lumot

№	Shahar va qishloqlar nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1.	Chim qishlog‘i	85256	14142,66
2.	Jonbo‘zsoy qishlog‘i	53018	5603,21
3.	Ko‘kbuloq qishlog‘i	355732	139238,66
4.	Loyqasoy qishlog‘i	35442	4193,68
5.	Qamay qishlog‘i	41964	6189,27
6.	Qiziltepa qishlog‘i	161245	42417,93
7.	Qorabog‘ qishlog‘i	78170	12221,55
8.	Qoratepa qishlog‘i	41438	8444,73
9.	Rabot qishlog‘i	67564	8916,83
10.	Suvtegirmon qilshog‘i	41629	7350,88
11.	To‘qboy qishlog‘i	45900	5872,07
12.	Yortepa qishlog‘i	35377	6729,10
13.	Qamashi shahar	35094	3166,08
	Jami:	**1077829**	**264486,65**

Xalq deputatlari Qamashi tuman
Kengashining
2023-yil 4-iyuldagi
VI-62-61-4-58-K/23-son qaroriga
2-ilova

